ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR”DOSTONIDA KOMIL INSON VA MA’NAVIY KAMOLOT MASALASI

FARG’ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA TILLARNI O’QITISH:O’ZBEK TILI
24-137B GURUH TALABASI
SHARAPOVA MAVLUDAXON

Annotatsiya

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida yuksak badiiy tafakkuri, falsafiy qarashlari hamda insonparvarlik g‘oyalari bilan alohida o‘rin egallagan buyuk mutafakkir shoirdir. Uning boy adabiy merosida inson va uning ma’naviy olami, axloqiy kamoloti, ezgulik, adolat, muhabbat, ilm-ma’rifat hamda haqiqatni anglash masalalari yetakchi o‘rin tutadi. Navoiy ijodining muhim jihatlaridan biri u insonni jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida e’tirof etib, uning ruhiy va ma’naviy yuksalishini hayotning asosiy mazmuni sifatida talqin qiladi.Navoiyning ijodiga nazar tashlasak, uning yozgan ruboiy,g’azal,tuyuq hamda dostonlarida asosiy g'oya majoziy ishq , tasavvuf, didaktik mazmundadir. A.Navoiyning falsafiy-irfoniy qarashlari mujassamlashgan “Lison ut-tayr” (Qush tili) dostoni bu borada muhim ilmiy tadqiqot manbalaridan biri hisoblanadi.A.Navoiy bu dostonini Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr’’ asari ta’sirida yozgan.

Introduction. Alisher Navoi is a great thinker and poet who holds a special place in the history of Uzbek classical literature due to his profound artistic thinking, philosophical views, and humanistic ideas. His rich literary heritage primarily focuses on human beings and their spiritual world, moral perfection, goodness, justice, love, knowledge, enlightenment, and the pursuit of truth. One of the most significant aspects of Navoi’s creative work is that he recognizes the human being as the highest value of society and interprets spiritual and moral development as the fundamental purpose of life.An examination of Navoi’s literary works reveals that the central themes of his rubaiyat, ghazals, tuyuks, and epics include metaphorical love, Sufism, and didactic ideas. In this

regard, his epic “Lison ut-Tayr” (The Language of Birds), which embodies his philosophical and mystical views, is considered one of the important sources for scholarly research.Alisher Navoi composed this epic under the influence of Farididdin Attar’s “Mantiq ut-Tayr” (The Conference of the Birds).

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, «Lison ut-tayr», komil inson, ma’naviy kamolot, tasavvuf, irfoniy qarashlar, ruhiy poklanish, o‘zlikni anglash, Simurg‘ obrazi, Hudhud obrazi, qushlar timsoli, yetti vodiy, nafs tarbiyasi, botiniy ishq, haqiqat, ma’rifat, ilohiy ishq, insonparvarlik, axloqiy yetuklik, faqr-u fano.

Keywords: Alisher Navoi, Lison ut-Tayr (The Language of Birds), the perfect human being, spiritual perfection, Sufism, mystical-philosophical views, spiritual purification, self-awareness, the Simurgh image, the Hoopoe (Hudhud) image, the symbolism of birds, the Seven Valleys, purification of the soul, inner love, divine love, truth, enlightenment, humanism, moral perfection, spiritual maturity, Faqr and Fana.

Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni o‘zbek adabiyotida inson ma’naviyatini ruhiy poklanishi, o‘zligini anglash va komillikka erishish masalasi chuqur yoritilgangan falsafiy-tasavvufiy asarlaridan biridir.Asar 1498-1499 yillarda F.Attorning “Mantiq ut-tayr”dostonidan ta’sirlanib yozilgan .Asar g’oyasi inson haqiqiy kamolotga erishishi uchun nafs, kibr, manmanlik, jaholat va o’tkinchi hirs kabi illatlardan xalos bo’lsagina haqiqiy ishqni ,lazzatni,xotirjamlikka ega bo’ladi va botiniy ishqqa erishadi.“Lison ut-tayr” – falsafiy-tasavvufiy doston bo‘lib, shoir majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalarini ilgari suradi. Navoiy dostonda Xudo tashqarida emas,balki sening o‘zingda qalbingda deydi. Bu bilan Navoiy insonni ulug‘laydi, uning kamolotga erishish yo‘lini yuksak she’riy mahorat bilan bayon etadi. Asarning barcha g‘oyasi qushlar orqali odamning fe’l-atvorini ko‘rsatishga qaratilgan.

„Lison ut-tayr“ dostoni 3598 baytdan (176 kichik bobdan) iborat bo‘lib, aruz vaznining ramali musaddasi maqsur (foilotun – foilotun – foilon) vaznida yozilgan. Asar allohga hamd ,payg’ambarga na’t chohoriyorlar tavsifi doston yozilish sababi salaflarga bag’ishlovlar bilan boshlanadi. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan. Asardagi hikoyalarda Navoiy buyuk

hikoyanavis sifatida tasvirlanadi. Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida komil insonni bir qahramon orqali emas, balki qushlarning Simurg‘ sari qilgan ramziy safari orqali ifodalaydi. Qushlar inson ruhiyatidagi turli holatlar, istaklar, qo‘rquvlar va ma’naviy izlanishlarning timsolidir.Dostondagi qushlarning safarga chiqishi insonning o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishini anglatadi. Ularning yo‘lda duch keladigan qiyinchiliklari esa insonning ma’naviy kamolot sari borishida uchraydigan ichki to‘siqlarni ifodalaydi.

Dostondagi Hudhud,Simurg’,Qushlar obrazi hamda ularning yeti vodiydan o’tishlarida falsafiy -tasavvufiy tushunchalar yotadi.

1.Simurg’ dostonning asosiy obrazlaridan bo’lib u qushlar intilayotgan haqiqat va ruhiy kamolot timsoli.

2.Hudhud obrazi-alohida ahamiyatga egadir.Bu obraz orqali Navoiy murshidlik,ruhiy tarbiya,ma’rifat hamda hikmatni mujassam etgaan.Hudhud qushlarga yo’l ko’rsatibgina qolmay qushlarning o’z nafslari kamchiliklarini anglashlariga yordam beragan.

3.Qushlar-bu inson va uning ruhiyatini tasvirlab bergan.

Bu asarda A.Navoiy qushlarning yetti vodiydan o’tishlarida insonning yeti bosqichda o’zlarini poklashlari va shakllanishlarini yoritib bergan.Yetti vodiy orqali Navoiy payg’ambarimiz Muhammad s.a.v.ning me’rojga chiqqanida 7 osmondan o’tishini hamda har bir osmonda poklanib ,yuksalib yetuklikka erishgnini aytib o’tadi.Bu vodiylar ;

-talab vodiysi-insonning haqiqatga bo’lgan intilishi.

-ishq vodiysi-insonning qalb pokligi orqali botiniy ishqqa erishishi.

-ma’rifat vodiysi-ilm,bilim,tafakkur borliqni anglashi.

-istig’no vodiysi-moddiy manfaatlar hamda tashqi go’zallikdan uzilish.

-tavhid vodiysi-birlikni anglashda tasavvufiy mushohada.

-hayrat vodiysi-borliq sirlarini tafakkur etish.

-faqr-u fano vodiysi-nafsdan manmanlikdan kechish, komillikka ruhiy yetuklikka erishish.

Qushlarning bu bosqichdan o’tishlari ularning zohiriy va botiniy xolatlari bilan bog’liq.

Asardagi voqealar shunday boshlanadi: Bir kun guliston, o'rmon, dengiz va biyobon qushlari har biri o'z guruhi bilan bir yerga jam bo'lib, majlis tuzdilar. Ular muhabbat bilan navo tuzib, bazm tugagach, osmonga parvoz qilmoqchi edilar. Ammo bu yig'inda ulardan hech qaysining tayin bir o'rni yo'q edi. O'tirishda tartib bo'lmagani uchun Kalog'(olaqarg'a) To'tidan, Zog'(go'ngqarg'a) esa Bulbul va Qumrilardan yuqoriroqda o'tirdi. Xod(kalxat) Shunqordan to'rga chiqdi. Yurtachi(o'laksaxo'r) esa Tovusni ham nazar-pisand qilmay yuqoriga o'tib ketdi. Hunarliklar o'rnini behunarlar egalladi. Tojsiz qushlar to'rga chiqib olishdi, tojdor qushlar esa poygohda qolishdi. Nihoyat, poygohdagilar nizo chiqardilar, to'rdagilar esa ularning so'ziga quloq osmadilar. Natijada qushlar orasida g'avg'o-to'polon ko'tarildi, ular sodir bo'lgan ahvolni mojarolasha-mojarolasha qizg'in muhokama qila boshladilar. Vaqt o'tgan sari bu mojaro tobora oshib bordi. Oxir-oqibat ular shunday bir shohga muhtoj bo'ldilarki, u shoh insofli va diyonatli, yaxshi tartib o'rnata oladigan va adolatli boisin. Toki uning davlati soyasida pastdan a'loga shikast yetmasin, yuqori tabaqadagilar esa o'rta tabaqalar oldida xor bo'lmasin. Har bir qush guruhi o'ziga aziz bo'lgani holda, hamma bir tamizli, aqlli va dono shoh bo'li-shini istadi. Ammo bunday odil shoh ular orasida yo'q edi. Shuning uchun ham qushlar zoru mahzun bo'lib, har biri o'zining yomon holidan afsus chekmoqqa kirishdi. Ulardan motam ohanglari eshitila boshladi. Bunday shoh topilmasligidan ularning barchasi noumid bo'ldilar. Bu hodisa ular qalbida og'ir iz qoldirdi. Ular chala so'yilgan qush kabi iztirob cheka boshladilar.[1]

Shundan so'ng ular o'zlariga shoh izlab turganlarida Hudhud ularga Semurg' haqida xabar beradi.Bu xabar qushlarga yoqib Hudhudga ergashadilar. Lekin ular yo'l davomida nafslari, o'zlariga bo'lgan baholari tufayli yeti vodiyning qaysi bir bosqichidan o'tolmaydi. Shunda ular Hudhudga arz -shikoyatlarini aytishadi va o'z o'rnida Hudhud ham qushlarning e'tiroziga munosib javob qaytaradi.

A.Navoiy bu doston orqali ,inson ma'naviy yetuklik va komillik maqomiga qanday erishish kerakligini yorqin tasvirlab bergan.Qushlar orqali insoniyatning o'z kamchiliklari,nafs o'tkinchi orzu -intilishlari ,tashqi go'zallikka ishonib haqiqiy ne'matdan

[1] A.Navoiy ''Lison ut-tayr''

bebaxra qolayotganini aytadi.Manzilga yetib borgan 33 qush orqali esa Alloh suygan bandalarini har qanday vaziyatda ham o’z jamoli bilan mukofotlashini eslatib o’tadi.

Navoiy talqinida komil inson bo‘lish uchun, avvalo, inson o‘z nafsini tarbiyalashi, qalbini turli illatlardan poklashi, ilm-ma’rifatga intilishi va ezgu fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirishi zarur. Shu jihatdan «Lison ut-tayr» dostoni nafaqat tasavvufiy-falsafiy asar, balki insonni ma’naviy barkamollikka chorlovchi yuksak axloqiy-ta’limiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 12-jild. – Toshkent: Fan, 1996.

2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 9-jild.

3.A.Navoiy “Lison ut-tayr”